



OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA UZLUKSIZ MA'NAVIY TARBIYA JARAYONINING MAZMUNI

Malikova Dildoraxon Qobilovna

T.N.Qori Niyoziy nomidagi

O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot

instituti mustaqil tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6567960>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-may 2022

Ma'qullandi: 10- may 2022

Chop etildi: 17- may 2022

KALIT SO'ZLAR

uzliksiz ta'lim-tarbiya,
konsepsiya, ma'naviy
ma'rifiy ishlar, axloq,
tarbiya, murojaatnoma,
ta'lim, bilim, ota-ona, , oliy
ta'lim, talaba.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola hozirgi kun oliy ta'limida dolzarblik kasp etgan masalalarni o'z ichiga qamrabgina qolmay, ular yechimiga doir ba'zi fikrlarni ham o'z ichiga oladi. Oliy ma'naviy tarbiya va ta'limdagi sifat nechog'lik zarurligi, buni yuqori ko'rsatkichga ko'tarishda ota-onalar va mas'ul tashkilotlarning roli qay darajada ahamiyatli ekanligi kabi masalalarga alohida to'xtalib o'tilgan

Har bir davrda insonlarning jamiyat tuzilishi va tashkiliy masalalari borsidagi alohida qarashlari va prinsiplari mavjud bo'lgan. Tarbiya ham aynan ushbu me'yoriy qoidalarning yillar davomida sayqal olib kelayotgan shakli hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda tarbiya jarayonlariga har qachongidan ham ko'proq e'ibor qaratilmoqda. Bunga misol qilib, 2020-yil 6-iyundagi Vazirlar Mahkamasining 422-son qarori asosida "Tarbiya" fani konsepsiyasi ishlab chiqilganini, Xalq ta'limi vazirining 2020-yil 10-iyuldagi 161-son buyrug'i asosida maktablarda tarbiya fanining o'qilishi joriy etilganini aytishimiz mumkin.

O'qitish jarayonida tarbiya metodlarining ahamiyati juda kata. Chunki, mana shu metodlardan foydalangan holda ta'lim va tarbiya jarayonini birgalikda olib boorish mumkin. Metodning ijobiy va salbiysi bo'lmaydi, tarbiya jarayonida ma'lum yo'lni

yuqori darajadagi samarali va samarasiz deya baholash mumkin emas. Metodning samaradorligini u qo'llanilayotgan sharoit nuqtai nazaridan baholash mumkin.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tarbiya masalasi qadimdan eng muhim ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ota-bobolarimizning tarbiya haqidagi qarashlari va axloqiy boyliklari juda katta. Agar tarbiya metodlari bo'lmaganida ta'lim jarayonini to'g'ri amalga oshirish, o'qituvchi pedagogik qobiliyatini shakllantirish, tarbiyalovchi va tarbiyalanuvchi o'rtasida to'g'ri munosabatlarni yo'lga qo'yishning imkoniyati bo'lmasdi.

Har bir tarbiyalovchi ta'lim jarayonida yangi metod yaratishga harakat qiladi. Ammo, tarbiyaning mutlaqo yangi metodlarini yaratishga bironta tarbiyachining kuchi yetmaydi. Metodlarni takomillashtirish muammosi doimo



mavjud, har bir tarbiyachi o'zining imkoniyatiga ko'ra uni hal qiladi, tarbiya jarayonining aniq shart-sharoitlariga mos ravishda o'zining xususiy qarashlarini ifoda etish asosida umumiy metodikani boyitadi. Oilada farzand tarbiyasiga e'tiborsizlik O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishning yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi Qarorida ichki tahdid sifatida qayd qilinib, mazkur tahdidga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish vazifasi qo'yildi.

TADQIQOT METODIKASI VA EMPIRIC TAHLIL

Keyingi yillarda mamlakatimizda yoshlar tarbiyasiga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev raisligida 2019 yil 23 avgust kuni bo'lib o'tgan xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida ta'lim va tarbiyaning ahamiyati haqida so'z bordi. Mazkur yig'ilishda Davlatimiz rahbari yosh avlod tarbiyasi, odob-axloqi haqida to'xtalib, "Maktab - bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Bu masalani davlat, hukumat va hokimlarning o'zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak. Maktabni o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi", - deya alohida ta'kidladi.

Shunday bir vaziyatda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2019 yil 3 maydagi PQ 4307-sonli qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi 1059-sonli qarorining qabul qilinishi bu millat kelajagi, millat ma'naviy taraqqiyoti uchun bir o'ziga hos tarixiy voqelik bo'ldi. Mazkur konsepsiya 8 ta bob va ma'naviy tarbiyaning uzluksizligini ta'minlashga qaratilgan 61 ta maqsadli va manzilli tabirlar rejasidan iborat bo'lib, uning amalga oshirilishi 4 bosqichdan iborat bo'ladi.

Muhtaram davlat rahbarimiz Sh.Mirziyoevning 2018 yilning 24 oktyabridagi oliy ta'limga bag'ishlangan yig'ilishida juda qattiq norozilik va tanqidga olingan ushbu sohadagi ma'naviy ma'rifiy ishlar va umumiy sifat ko'rsatkichi biz tilga olgan masalalarning ayni o'zidir.

Masalaga tanqidiy yondashuv orqali mos yechimlarni tanlashni maqsadga muvofiq deb bildik. Dastavval, ta'lim zinalarida pastdan yuqoriga qarab so'z yuritsak va masalaning asl mohiyatiga to'xtalsak:

Tarbiya masallarida biz e'tiborga olmayotgan holatlar va ular ishtirokida nazoratga olinishi kerak masalalar ta'limning barcha bosqichlarda mavjud.

- Maktabgacha ta'limda
- Umumiy-o'rta ta'limda
- O'rta maxsus ta'limda
- Oliy ta'limda

Hech shubhasiz bu zinalardagi bo'shliqlar bir-biriga bog'liq, ammo oliy ta'lim tizimiga aloqador ba'zi jihatlarga to'xtalamiz. Ushbu jarayonlarda ham avvalo ota-onalar hal qiluvchi o'rin egallaydilar. Ota-onalar doim farzand tarbiyasi va uning boshqaruvini yo'naltiruvchi asosiy shaxs hisoblanadilar. Ammo hozirgi davr talabalaridagi qiziqish pastligi, axloqiy buzilishlar, va g'oyaviy bo'shliqlar, ommaviy madaniyatning



noto'g'ri va mintalitetimizga yod jihatlariga taqlid qilish, ilmiy salohiyat va savodxonlik darajasi pastligiga asosiy sababchi nima?, yoki kim? Bunday savollar davomli va bir-biridan xilma-xil. Ota onalarning faoliyati bilan bog'liq jihatlar:

birinchidan-oliy talim muassasiga kirgunga qadar bo'lguncha nazoratga olingan farzand, talaba bo'lgandan so'ng mukofotlanadi. Ko'pincha u uchun barcha sharoitlar yaratilishiga harakat qiladigan ota-ona endilikda uning o'qish jarayoni va ta'limiy masalalari bilan kam qiziqadi.

ikkinchidan-haddan ziyod ishonch va shuning ta'sirida talabadagi mas'uliyat hissi, endi maqtanchoqlik, kibr va o'zboshimchalikga aylanishi jarayoni boshlanadi. Shu tariqa ota-ona ishonchining aks ta'siri o'laroq yod va zararli odatlarga moyillik paydo bo'ladi;

Uchinchidan- farzand o'zicha balog'atga yetgan, hejkimga hisob bermaydi, ammo hali tarbiyaga muhtoj va ayni hayotda to'g'ri yo'lni tanlashi kerak bo'lgan davrda e'tibor va o'sha abituriyentlikdagi qat'iy nazoratlardan chiqadi, natijada erkinlikning salbiy oqibatlari kuzatila boshlaydi;

to'rtinchidan- farzandingiz tahsil olayotgan ta'lim muassasasi bilan aloqalar va bog'liqlikning integratsion tizimi yo'lga qo'yilmaganligi.

Kichik va tahliliy kuzatuv tajribamizdan, o'tkazilgan so'rovnomamizdan shu narsa ma'lum bo'ldiki, talabalarining deyarli 85 foizi hayotida ikki xil sharoitni kuzatish mumkin. Uydgi yashash muhitida: so'raladigan savollarga javoblar ijobiy va a'lo darajada bo'ladi, garchi tarbiyaviy holat va ma'naviy ozuqa yetarli darajada bo'lmasa ham.

Tashqaridan qaraganda, talaba shaxsiyati dono, bilimli va ishbilarmon kishi imidjida

ko'rinadi, asosiy oliy talim muhitiga ammo o'qishga qaytgach, loqaydlik va salbiy odatlarga moil erkinlik paydo bo'la boshlaydi

Oliy talimdagi asosiy ta'lim tarbiya va uzluksiz jarayonlarning yo'nalishi avvalo talaba shaxsiga qaratilishi lozim va bu obyektiv qarashdir.

NATIJALAR

Ushbu masalani tahlil qilish mobaynida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit holatini aniqlash va manzilli sog'lomlashtirish metodikasi" hamda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" asosida joylarda o'tkazilgan so'rovlar natijalarini amaliy ishlar sirasiga qo'shish va misol sifatida keltirishni lozim topdik.

So'rovnoma quyidagi formatda tashkil qilindi: ota-onalarning farzandiga yaxshi tarbiya berishi uchun nima halaqit berayapti deb o'ylaysiz? deb berilgan savolga Navoiy (60%), Jizzax (57,4%), Sirdaryo (57%), Samarqand (53%), Buxoro (44%) viloyati hamda Toshkent shahrida (50%) ota-onalar tarbiya metodlarini bilmaydi va tarbiyadagi oilaning mas'uliyatini anglamasligi deb javob berishgan. Shunga binoan masalaga yechim sifatida "Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi" ning alohida vazifalarini ko'rsatib o'tish mumkin.

Ushbu konsepsiya to'rt bosqichda amalga oshiriladi:

☐ birinchi bosqich-oilalarda (ikki davr: 1-davr-homila davri, 2-davr-bola tug'ilganidan 3 yoshgacha bo'lgan davr);

☐ ikkinchi bosqich-maktabgacha ta'lim 3-6 (7) yoshgacha bo'lgan davr;

☐ uchinchi bosqich-umumiy o'rta ta'lim tizimida (ikki davr: 1-davr –7 (6)-10



yosh boshlang'ich sinf, 2-davr-11-17 yosh o'rta va yuqori sinflar);

7 to'rtinchi bosqich-ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlar, shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalari tizimida (ikki davr: 1-davr-o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlar-17-30 yosh, 2-davr-o'rta maxsus kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalarining o'quvchi-talabalari 15-22 (24) yosh).

Konsepsiyaning 4-bosqichi aynan oliy talim tizimiga mos keladi.

Shuni alohida takidlash lozimki, mahalla, ota-onalar talabalar va OTMlar rahbariyati tashkiliy tuzilmasi o'rtasida chuqurlashtirilgan maqsadli hamkorlikni tashkil qilish muhim ahamiyatga ega va shunga binoan ushbu ishlarni quyidagi tartibda amalga oshirishni taklif sifatida kiritmoqchimiz:

1- Dastlabki bosqichda qilinishi lozim bo'lgan amaliy ishlar:

a) Birinchi bosqichga qabul qilingan talabalar ularning ota-onalari bilan OTM rektorlari, yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektorlar, dekanlar, dekan o'rinbosarlari va muttassadi tashkilotlar yuqori lavozimdagi shaxslar bilan kengaytirilgan yig'ilish, davra suhbatlari tadbirlarni tantanali o'tkazish;

b) tomonlar o'zaro erkin fikr almashishlarini va takliflarni berib borishlarini ta'minlab borish. Ochiq davra suhbatlari anjuman va sayyor qabul tarzida;

2- Oila markazlari mahalla va boshqa hamkor tashkilotlar aloqasini OTM bilan birgalikda chambarchas bog'lash:

a) Xuddi kirish sinovlarida ota-onalar kuzatuvchi bo'lgani kabi, endilikda universitet ular uchun farzandi faoliyatini bemalol va bexavotir, eng muhimi ishonchli kuzatish boxabar bo'lish markazi sifatida faoliyat olib bormog'i lozim.

b) Konsultativ markaz tashkil etilib, ayni ular bilan ishlash bo'limida malakali psixolog, maslahatchi, ko'mak bera oladigan kadrlarni joylashtirish. Bitta malakali psixolog katta fakultetdagi jamoani jumladan ota-onalarini ham o'z qobiliyati, mahorati bilan qamrab olishi va yaqin mustahkam faoliyatni yo'lga qo'yishi mumkin, demak kadrlarning kontingenti emas, balki bilim darajasi va pedagogik-psixologik mahorati va ish olib boorish metodikasi ko'proq ahamiyat kasp etadi.

XULOSA VA MULOHAZALAR

Xulosa o'rnida shuni aytish o'rinliki, oliy ta'lim tizimidagi ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy muhit va ta'lim tarbiya jarayonlarining maqsadga muvofiq tashkil etilishida nafaqat OTM professor-o'qituvchilari balki, barcha ma'naviy-ma'rifiy ishlar bilan shug'illanuvchi organ va muassasalar, ota-onalarning roli nihoyatda ahamiyatlidir. Farzandlarimizni ilm-fan va ta'lim-tarbiya asosida voyaga yetkazish maqsadga muvofiq ekan, o'z o'rnida tarbiya esa ma'naviyat bilan chambarchas bog'liqdir. Zero, yoshlar kelajak egalari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 03.05.2019 yildagi PQ-4307-son <https://lex.uz/ru/docs/-4320700>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 31.12.2019 yildagi 1059-son <https://www.lex.uz/docs/-4676839>



3. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. Toshkent, "O'zbekiston".
4. Saidahmedov N., Abdurahmonov O. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. T., 1999. – 287 b
- A. Xoliqov "Pedagogik mahorat" T.: "Iqtisod-moliya" 2010 y 520 b.
5. X.Sharafutdinova O`quv-metodik majmua. Pedagogik faoliyat psixologiyasi. Termiz-2019
6. <http://www.pedagog.uz>
7. Cyberleninka.ru
8. Google.com
9. Ziyonet.uz
10. Yandex.ru
11. Wikipedia.com
12. Fayllar.org